



ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ”

ASARIDA SINTAKTIK MUNOSABAT HAQIDA

Shamsiddinova Hafizabonu

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna

Farg‘ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari va ushbu asardagi sintaktik bog‘lanishi, shakl va ma’no munosabati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ”Turkiy guliston yoxud axloq” asari, sintaktik bog‘lanish, ot, sifat, fe’l so‘z turkumlari.

Aloqa atamasining o‘zi grammatikada juda keng kòlamda qo‘llanadi va uni shakliy jihatdan so‘z va so‘z shakllarining bog‘lanishi misolida, mazmunan bir so‘z yoki gapning bir-biriga bog‘lana olish imkoniyatlarida yaqqol ko‘ra olamiz. Aloqalar o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra turli xil ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, sintaktik aloqa, semantik, struktural yoki bog‘li, erkin aloqa kabi turlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Shu o‘rinda aloqa va munosabat tushunchalarining bir biridan farqli jihatlariga ham e’tiborni qaratmay ilojimiz yo‘q. Sababi, biz ularga sintaksisni o‘rganish davomida juda ko‘p bor murojaat qilamiz.

Sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo‘linadi: predikativ va nopredikativ. Predikativ bo‘linish gap qurilishi asosi (grammatika markazi/ komponentlari (ega va kesim)ning sintaktik munosabatidir. Bular orqali gap hosil qilinadi. Misol: Men ishga kecha chiqdim. (shaxs va sonda moslashayapti).



Nopredikativ bog'lanish bunday xususiyatga ega emas. Teng bog'lanish (teng sintaktik munosabatda bo'lish, so'zlar shuningdek, qo'shma gaplarning predikativ komponentlari orasidagi biri ikkinchisiga bo'ysunmagan, teng aloqasini ko'rsatuvchi munosabat: o'qituvchi va o'quvchi, qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi va ergash bog'lanish (bunda biri hokim va ikkinchisi tobe bo'lgan so'zlar o'zaro aloqaga kirishadi: Salimni ko'rdim) nopredikativ bog'lanishning bir turlaridir. Sintaktik munosabat jadid ma'rifatparvar allomasi A.Avloniy asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Milliy uyg'onish davrining yirik vakili Abdulla Avloniyning asarlari - o'zbek adabiyotidagi o'rni beqiyos. A.Avloniy asarlarining bosh g'oyasi ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim-tarbiya ta'limotiga qaratilgan. Shu sababli uning hayoti va ijodi ko'p olimlar, adabiyot namoyondalari tomonidan o'rganilgan.

Abdulla Avloniyning eng mashhur kitoblaridan biri – “Turkiy guliston yoxud axloq” asari. Bu asarda odob-axloq, tarbiya masalalari birinchi o'rinda turadi. U ushbu kitobidagi har bir so'zga katta e'tibor bergan va har birini o'z o'rnida qo'llay olgan. Masalan, “Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur”¹. Shu bilan birga, so'zlarning ma'no va shakl jihatidan bir-biriga sintaktik bog'lanishi ham yaqqol seziladi. Birinchi navbatda shakl jihatidan tahlil qilsak, ot so'z turkumi bilan fe'lning bog'lanishi, ot bilan otning bog'lanishi yoki sifat bilan otning bog'lanishi va boshqa so'z turkumlarning bir-biriga uzviy birikishi kitobni o'qigan har qanday kishilarga, kitobxonlarga qiyinchilik tug'dirmaydi, ma'nosini tushunish oson bo'ladi. Jumladan, “Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri – jasad, ikkinchisi nafsdur”.² Bunda ot+son, ot+sifat bog'lanishi orqali so'zlar tushunarli shaklda yetkazilgan. Bundan tashqari ot+ot ko'rinishidagi bog'lanishlar asarda ko'p qo'llanilgan va asarga o'zgacha hukm bergan. “Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur”.³ Bu gapdagi so'zlarning bog'lanishiga e'tibor berilsa, ko'chma ma'noda qo'llanilgan ot+ot qolipi ya'ni axloqimiz

¹ Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan 3-bet

² Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan 4-bet

³ Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan 6-bet



binosi, tarbiyaning ta'siri kabi shakllarni ko'ramiz. Shuningdek, asarda xastaning badani, axloqning asosi, axloq havaskorlari, qushlarning bolasi, nafs surati kabi birikmalar ham bor.

So'zlarning sintaktik bog'lanishini ma'no jihatidan tahlil qilsak, so'zlarning bosh va hosila ma'nolari ko'p qo'llanilib, mavhum ot bilan birga harakat fe'li, xususiyat sifati bilan shaxs oti, jamlik oti bilan mavhum otlar bir-biriga birikishi, boshqa birining o'rnida olmoshdan foydalanganligi kitobxon xotirasiga singishi oson bo'ladi va bog'lanishlar sabab bu kitobdagi asil ma'noni mukammalroq tushunadi. Misol uchun “ Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir”.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida so'z qo'llash orqali qanchalik ona tilidagi so'zlarning o'zni o'rnida ishlatish lozimligini isbotlab bergan. Misol uchun bitta “tarbiya” so'zini tahlil qilaylik. Tarbiya inson fazilatlarining ziynati ekanligini ifodalash bilan birga boshqa mustaqil so'z turkumlari bilan moslashganligini, so'zning bir-biriga uyg'un bo'lganligini ko'ramiz. “Yaxshi tarbiya”, “ Tarbiyaning ziynati”, “Bola tarbiyasi”, “Tarbiyaning zamoni” kabi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asari kitobxonlarga ma'naviy tarbiya, odob-axloq masalalarining o'zini emas, balki bu asarning sintaktik tahlili turli grammatik birliklarni, jumla qurilishlarini va uslubiy xususiyatlarini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq Toshkent, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2004.
2. R Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2009.
3. Q. Sapayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2009
4. A. G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent, 1987.